

## XATIB BAG'DODIYNING "AL-JOME" ASARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI

**Mahmudova Odina Obiddin qizi**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,  
"Islomshunoslik" mutaxassisligi 2-kurs magistranti  
Odinamahmudova2610@gmail.com

**Annotatsiya:** Xatib Bag'dodiyning "Al-Jome" asarida asosan ustoz-shogirdga tegishli odoblar, ta'lim berish va olish uslublari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu maqolada "Al-Jome" asari manbashunoslik jihatdan tahlil qilingan bo'lib, hozirda mavjud bo'lgan ikkita nusxasi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** "Al-Jome", nusxa, Iskandariya, Zohiriyya.

**Аннотация:** "Аль-Джоме" хатиба Багдади содержит информацию о манерах, методах обучения и получения, в основном относящихся к учителю-ученику. В этой статье анализируется работа "Аль-Джоме" с точки зрения источниковедения, с подробным описанием двух существующих в настоящее время копий.

**Ключевые слова:** «Аль-Джоме», копия, Александрия, Захирия.

**Annotation:** Khatib Baghdadi's "Al-Jome" provides information on manners, teaching, and receiving practices that are mainly attributed to the master-disciple. This article provides a source-friendly analysis of the work "Al-Jome", detailing the two extant copies.

**Keywords:** "Al-Jame", copy, Alexandria, Zahiriyya.

**لتعليق التوضيحي:** يقدم كتاب "الجامع" للخطيب البغدادي معلومات عن الأخلاق والتدريس وتلقي الممارسات التي تنسب بشكل أساسي إلى المعلم-التلميذ. تقدم هذه المقالة تحليلاً سهلاً المصدر لعمل "الجامع" مع تفصيل النسختين الموجودتين.  
**الكلمات المفتاحية:** "الجامع"، نسخة، الإسكندرية، الظاهرية.

### Kirish

Xatib Bag'dodiy hadis ilmida ko'p hadis rivoyat qilgan va jamlagan bo'lib, shogirdi, hanbaliy hadis olimi Ibn Aqilning so'zlariga ko'ra, Xatib Bag'dodiy hadis ilmida tengsiz asarlar muallifiga aylangan<sup>1</sup>. Xatib Bag'dodiy o'zidan keyin boy ilmiy meros qoldirgan musanniflar qatoriga kiradi. Barcha olimlar uni "Ko'plab kitoblar sohibi" deb tilga olishadi. Shunday asarlaridan biri shubhasiz, "Al-Jome" asaridir.

### Asosiy qism

Xatib Bag'dodiyning asl ismi Ahmad ibn Ali ibn Sobit ibn Ahmad ibn Mahdiy bo'lib, Xatib Bag'dodiy kunyalari bilan tanilgan. Xatib Bag'dodiy "Tarix al-Bag'dod" asarida o'zining kelib chiqishini arablarga borib taqalishini qayd qilgan<sup>2</sup>. Shamsiddin Zahabiyning "Shazarot az-zahab" asarida: "Xatib Bag'dodiy hijriy 398-yil jumodu-l-

<sup>1</sup> Xatib Bag'dodiy. Al-Asma al-mubhama fi-l-anba al-muhkama. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 2005. – B. 250.

<sup>2</sup> Xatib Bag'dodiy. Tarix ai-Bag'dod. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 2007. – B. 212

oxir oyida tavallud topgan” deyiladi.<sup>3</sup> Xatib Bag‘dodiy yozgan asarlarning soni 80 tadan oshadi. Ulardan 40 tasining nomi aniqlangan. Shulardan 12 tasi esa, hozirda nashr qilingan.

Bag‘dodiyning “Al-Jome” asarini tahqiq qilgan, unga tegishli bo‘lgan xabarlarni taxrij qilgan va ushbu asarni fihrisini tuzgan hadisshunos olim, Muhammad Ajjoj “Al-Jome” asarining nusxalari haqida quyidagicha ma‘lumot bergan: “Men 1959 yil Damashqda ushbu asarning Iskandariya nusxasini topib o‘rgandim va ikkinchi nusxasini ham Damashqdagi Zohiriyya kutubxonasida topdim va u kitobni bir qismidan iborat edi”<sup>4</sup>.

Iskandariya kutubxonasida ushbu asar 3711- raqam ostida “mustalah ul hadis” bo‘limida saqlanadi. Ushbu nusxa bir jild va o‘n juzdan iborat bo‘lib, hijriy 500-yilda qog‘ozga tushirilgan. Uning kotibi Muhammad ibn Shokir ibn Iso ibn Maxluf. Nusxa o‘rtacha kesilgan 196 varoqdan (18,5x20,5sm) iborat bo‘lib, bir varoqda satrlar soni 22tani tashkil qiladi deb xabar beradi<sup>5</sup>. Har bir juzda Abu Hasan Sad Xoyr kitobni, Xatib Bag‘dodiydan ijozasi bo‘lgan Abu Qosim Bazuvriydan eshitib qabul qilib olgan. Shuning uchun ham bu nusxa shayx Bazuvriyning nusxasi bo‘lish ehtimoli ham bor.

Ushbu nusxa ko‘rib chiqib tekshirilgan va qabul qilingan, chunki har bir juzning oxirida bu narsa yozuv (qubul bihi) bilan tasdiqlangan. Ya’ni: asldan olingan nusxa qabul qilingan degan ibora keltirilgan. Yoki “Hammasi qabul qilingan”, “Qubul jamiyahu” iborasi ishlatilgan. Uchinchi juzning oxirida hoshiyada quyidagi ibora keltirilgan: “to‘rtinchi juzning oxiri asl nusxadan”. Kitob o‘n besh juzdan iborat ekanligiga dalolat qilingan. Muhammad ibn Ahmad Molikiy Andalusiy: “Hozir qo‘limizdagi kitob naql qilinganga mos tushadi va nega kotib o‘n besh juzni o‘n juzga qisqartirganini bilmaymiz. Zohirriya nusxasidan bo‘lgan bir parcha kitob buni tasdiqlaydi va bu asl kitobdan ko‘chirilgan to‘rtinchi juzdir. Buni Iskandariya nusxasidagi uchinchi juzning oxiridan bilish mumkin” deydi<sup>6</sup>.

Kitobning juzlari hajm jihatidan turlichadir va ba’zilar mavzuga to‘liq mos tushmaydi. Shuningdek, bir juzning boshida keladigan ba’zi mavzular keyingi juzni mazmunini ochishga yordam beradi. Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, nusxada sanad keltirilmaydi va shu bilan birgalikda nusxadagi juzlarning har birida eshitish orqali qabul qilingan hadislar, shayx Bazuvriyning Xatib Bag‘dodiydan ijozasi mavjudligi va kitobni Hofiz Xatib Bag‘dodiygacha mutavotir bo‘lganligi, bularning barchasi ushbu nusxaning ishonchli ekanliginin isbotlaydi. Shuningdek, kitobning asliga mos bo‘lgan va juzlarida kelgan bir parcha Zohiriyya nusxasi bizni ushbu nusxaga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Quyida Iskandariya nusxasidagi sakkizinchi juzning oxirida kelgan ibora taqdim etiladi: “Ushbu juzning barchasi Abu Qosim Muborak ibn Muhammad ibn Hasandan (Bazuvriy nomi bilan mashhur) - Alloh uni rahmatiga olsin - Musannif rahimahullohdan ijozaga ega bo‘lib, Shayx Abu Hasan Sad Xoyr ibn Muhammad ibn

<sup>3</sup> Abd al-Karim as-Sam‘oniy. Al-Ansob. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1998. – J. 2. B. 478.

<sup>4</sup> Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-roviy va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 97.

<sup>5</sup> Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-roviy va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 98.

<sup>6</sup> Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-roviy va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 98-99.

Sahl Ansoriy va uning qizlari: Fotima, Zaynab, Laylo, Nofe'ning qizi eshitib qabul qilib olishgan. Bu hijriy 529 yilda robi' ul-oxir oyida bo'lgan<sup>7</sup>.

O'ninchi juzning eshitib qabul qilib olinishi hijriy 529-yilning jumad ul-oxir oyiga to'g'ri kelgan. Birinchi juzni eshitib qabul qilib olish esa robiy ul avval oyi 529-yilga to'g'ri kelgan. Ushbu bobda ham ushbu jumla takrorlangan "Ushbu juzning barchasi Abu Qosim Muborak ibn Muhammad ibn Hasandan (Bazuvriy nomi bilan mashhur)- Alloh uni rahmatiga olsin- Musannif rahimohullohdan ijozaga ega bo'lib, Shayx Abu Hasan Sad Xoyr ibn Muhammad ibn Sahl Ansoriydan eshitib qabul qilib olgan"<sup>8</sup>.

Ushbu nusxa juda yaxshi va to'liq bo'lib, tahqiq qilishlikda olimlar suyangani nusxa hisoblanadi, chunki bu asl kitobdandir. Tahqiq qilingan kitobda "ا" (alif) harfi bilan Iskandariya nusxasiga, "ظ" (zo) harfi bilan Zohiriyya nusxasiga ishora qilingan<sup>9</sup>. Ushbu nusxaning foto nusxasi Qohiradagi Misr kutubxonasida 505-raqam ostida saqlanadi. Ushbu nusxa 1935 yili olingan<sup>10</sup>.

Zohiriyya nusxasi xat qilib jamlangan kitoblar bo'limida 55-raqam ostida saqlanadi. Bu "Al-Jome'" kitobining 4-juzi bo'lib, ushbu juzning oxirida "Al-Jome'" kitobining 4-juzidir" deb berilgan<sup>11</sup>. Ushbu nusxaning muqobilida bo'lgan Iskandariya nusxasida uchinchi juz asl kitobdan bo'lgan to'rtinchi juzni va ikkinchi juzni uchdan bir qismini o'z ichiga oladi. Bu shuni ko'rsatadiki, Zohiriyya nusxasi asl kitobdagi o'n besh juzdan biri hisoblanadi.

Ushbu kitobning bir parcha nusxasi Zohiriyya kutubxonasida xat qilib yozilgan kitoblar majmuasida 55-raqamda saqlanadi. Ushbu nusxa 148-betdan 163- betgacha bo'lgan sahifalarni o'z ichiga oladi. Nusxaning varoqlari qadimiy va yozuv turi odatdagidek, sahifalarning o'lchami esa 13,5x18,5 sm., har bir varoq 26 qatordan iborat. Ushbu nusxani asl kitobning muallifidan Tohir ibn Barokat ibn Ibrohim ibn Xoshaviy Quroyshiy eshitib qabul qilib olgan. "Tahzib tarix dimashq" asarida bu odam haqida quyidagicha fikr keltirilgan: "U hadis ahlidan bo'lib, ishonchlidir. Bayt ul Maqdisda hadis aytgan (hijriy 462). Uning shayxlarining ismlari jamlangan mo'jam kitobi mavjuddir. Uning o'g'li Abu Is'hoq Ibrohim Abdulloh ibn Ahmad ibn Ali ibn Sobir Salmiy qiroati bilan hijriy 480-yilda eshitishganligiga dalolat qiladi".

Shuningdek, uning farzandi Ibrohimda kitobni eshitib olish bo'lib, bu quyidagicha keltiriladi: "ushbu bobda "ayn" harfi Shayx Abu Fazl ibn Barokat Xoshaviy (r.a.) va o'g'li Abu Is'hoq Ibrohim Abdulloh ibn Ahmad ibn Ali ibn Sobir Salmiy qiroati bilan hijriy 480-yilda eshitishganligiga dalolat qiladi".

Shuningdek, ushbu juzni Tohir ibn Barokat Xoshaviy Xatib Bag'dodiydan robiy ul avval oyi hijriy 457-yilda kitobni eshitib qabul qilib olgan<sup>13</sup>. Bu juznig oxirida

<sup>7</sup> Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-rovii va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. .99

<sup>8</sup> Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-rovii va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 102.

<sup>9</sup> Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-rovii va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 105.

<sup>10</sup> Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-rovii va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 107-108.

<sup>11</sup> Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-rovii va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 112.

<sup>12</sup> Ibn Asokir. Tarix Dimashq. – Qohira: Dor al-kutub Usmoniyya, 2008. – J. 7. – B. 47. 7-juz, 47 b.

<sup>13</sup> Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-rovii va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 115.

quyidagicha zikr qilinadi: “Ushbu juzning barchasini Imom Xatib Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Sobit Xatib Bag‘dodiy (Alloh uni rahmatiga olsin)dan men, akam va o‘g‘lim Barokat ibn Ibrohim ibn Ali Xoshaviy va men bilan shayx Abu Fattoh Abdu Somad ibn Tamiym (Jome masjidida imom) va qizning og‘li Abu Muhammad ibn Ahmad Akfaniy va shayx Abu Muhammad Abdulloh ibn Hasan ibn Tolha ibn Naxxos Taniysiy va uning ikki og‘li Muhammad Tolha va shayx Abdulloh Muhammad ibn Abu Nasr Humaydiy va Mo‘dod ibn Ali Doroniy va Homid ibn Ahmad Nasuvviy, va Muhammad ibn Abu Vafo Samarqandiy va Salmon ibn Hamza Haddod va Abu Muhammad Abdulloh ibn Ahmad ibn Umar Samarqandiy va Haydar ibn Abdulloh va Abu Qosim Abdulloh ibn Yahyo Hazromiy va bu 457-yil robi’ ul-avval oyi”<sup>14</sup>. Ushbu kitob tinglovchilar orasida ikki nafar Movorounahrlik olimlar bo‘lib ushbu asarni hozirgi kunga yetib kelishiga o‘z hissasini qo‘shganlar.

Shuningdek, ushbu juzni sha‘bon oyining o‘n to‘qqizinchi kuni hijriy 593- yil yana ba‘zi ilm ahillari Tohir ibn Barokat Xoshaviydan eshitishgan.

Shuningdek, ushbu juzni Tohir ibn Barokat Xoshaviy ba‘zi ilm ahillari hijriy 572 va 594-yillarda eshitishgan.

Albatta, ushbu nusxa ishonchli bo‘lib, bu borada ahli ilm muzokara qilgan. Shuningdek, Xoshaviylar buni yod olishgan va yodlatishgan. To‘rtinchi juzning oxirini Tohir ibn Barokat Xoshaviy Xatib Bag‘dodiydan eshitganidan so‘ng, 114 yil mobaynida eshitib qabul qilib olganlar juda ko‘pchilikni tashkil etadi va bu ushbu juzning ishonchlilik darajasini ko‘rsatadi. Muhammad Ajjoj shunday deydi: “Agar kitob juzlarining hammasi shu kabi yetib kelganda, ular kitobning tahqiq qilinishiga yo‘l ochar edi. Shu bilan birgalikda, biz bu juzdan kitobni tahqiq qilishlikda unumli foydalandik. Albatta bu Iskandariya nusxasiga bo‘lgan ishonchimizni oshishiga sabab bo‘ldi”<sup>15</sup>.

### **Xulosa**

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ushbu asar manbashunoslik jihatidan juda qadrli hisoblanadi ham ushbu asarning hozirgacha yetib kelishida Movorounahrlik muhaddislarning ham o‘rni bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, eng mukammal nusxalaridan biri Iskandariya nusxasi to‘liq o‘rganilgan va tadqiq qilingan bo‘lib, Zohiriyya nusxasi esa kitobni hozirgi ko‘rinishga kelishiga o‘z hissasini qo‘shgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-roviy va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – 635 b.
2. Xatib Bag‘dodiy. Al-Asma al-mubhama fi-l-anba al-muhkama. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 2005. – 670 b.
3. Abd al-Karim as-Sam’oniyy. Al-Ansob. –Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1998. – J. 2. – 874 b.
4. Ibn Asokir. Tarix Dimashq. – Qohira: Dor al-kutub Usmoniyya, 2008. – J. 7. – 560 b.

<sup>14</sup> Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-roviy va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 120.

<sup>15</sup> Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-roviy va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 123.